SCIENCE SHINE
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
Volume 3, Issue 1 April 30, 2023

MARK TVENNING “TOM SAVYERNING SARGUZASHTLARI” HAMDA XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “SARIQ DEVNI MINIB” ASARI O‘RTASIDAGI LINGVOMADANIY LISONIY TILNI IFODA ETILISHI

Gulshanoy Turg‘unboyeva Ravshanbek qizi
Shoxista Xidiraliyeva Solijon qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabalari
Nozimaxon G‘ofurova Ikromovna
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola yuqorida keltirilgan ikki asar o‘rtasidagi lingvomadaniy lisoniy tilni ifoda etilishini tatbiq qiladi.

Kalit so‘z va iboralar: tarjimon, lingvokultorologiya, sujet, madaniyatning fonemoni, frezeologik birliklar, madaniyatshunoslik.

Annotation: This article applies the linguistic linguistic expression betveen the tvo vorks mentioned above.

Keyvords and expressions: translator, linguistic and cultural studies, plot, phoneme of culture, phraseological units, cultural studies.

Hozirgi jadallik bilan rivojlanyotgan bir pallada til o‘rganish, uni turli usullarda tarjima qilish dolzarb masala kasb etmoqda. Bu esa o‘z o‘rnida tarjimashunoslik fani ahamiyatini yanada muhimligini ko‘rsatib bermoqda. Tarjimashunoslik — ikki tildagi matnni chog‘ishtirish yoki bir tildagi ma’noning ikkinchi tilda aks etishini aniqlashgina emas, balki o‘zbek tilining salohiyati, boyligi va imkoniyatlarini ko‘rsatish, jahon adabiyotini milliy zaminda qayta yaratish ekani tan olindi. Tarjimashunoslik shu jarayonni umumfilologik ko‘lamda tadqiq qiladigan fan ekanligi aniqlandi. Boy bir davlatning nafaqat tilini balki uning sermazmun asarlaridan tortib she’r, masal, maqolalarini tarjima qilish tarjimondan yuksak mahorat talab qiladi. Misol tariqasida bir tilda yozilgan asarni ikkinchi tilda yozilgan o‘xshash asarga qiyoslab, farqlab, umumiy o‘xshash jihatlariga qaraydigan bo‘lsak avvalo, o‘sha millat madaniyati, urf-odat, an’analari, alohida e’tibor berishimiz kerak bo‘ladi. Ushbu maqolada mana shu masalarini o‘z ichiga qamrab olgan holda mashhur o‘zbek adibi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romani hamda amerikalik yozuvchisi, yumorist Mark Tvenning hammaga mashhur “The adventures of Tom Savyer” (Tom Savyerning sarguzashtlari) asarlarida lingvomadaniyatni ifoda etilishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Avvalambor asarlarning yaratilish tarixiga nazar tashlasak. Mark Tven bu asarning bosh qahramoni bo‘lgan Tom Sovyerni o‘z bolalik xotiralaridan ilhomlanib o‘ylab topgan bo‘lib, uning ismi esa tasodifan uchratib qolgan tanishiga atab qo‘ygan. O‘zbekning buyuk adibi Xudoyberdi To‘xtaboyev esa “Sariq devni minib” asarining qahramonlari va syujeti esa o‘z hayolot daryosidan marvariddek terib oladi.

Yuqorida keltirilgan asarlarning o‘xshash jihatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, har ikkala asarning janri ham sarguzasht roman va bosh qahramon obrazini bola egallaydi. “Sariq devni minib” asari qahramoni Hoshimjon va “Tom Savyerning sarguzashtlari” asari qahramoni Tom ham sarguzashtparvar, sho‘x, yangiliklar yaratishga moyil, qiziqqon ikki o‘spirinni ko‘rish mumkin. Bundan tashqari har ikki asar syujetida ham qiziq jarayon ya’ni devor oqlash ishi keltirilgan. Tom Savyer ayyorlik bilan holasi buyurgan panjarani do‘stlariga bo‘yatishi aks etadi, vaholanki o‘zbek asar qahramoni Hoshimjon ham buvasi buyurgan devorni hiyla ishlatib do‘stlariga bo‘yatishga ko‘ndiradi. Bundan tashqari “Tom Savyerning sarguzashtlari” asari qahramoni Tomning do‘sti Huckleberry Finn, vaholanki, o‘zbek asarida Hoshimjonning do‘sti uning qalpoqchasi etib ko‘rsatiladi. Ko‘rib turganimizdek har ikki o‘xshash tomonlari ko‘p. Ammo asar qiyoslanyotganda uning faqat o‘xshash jihatlariga urg‘u berishning o‘zi kamlik qiladi. Tarjimashunoslik fanida lingvomadaniy tushunchalar mavjud. Buning uchun avvalo lingvomadaniyat tushunchasiga ta’rif berish lozim. Lingvomadaniyat yoki lingvokultorologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasidir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasini, o‘zaro tasirini, tilda o‘z aksini topgan xalq madaniyatining ko‘rinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, tashuvchisi sifatida o‘rganadi. Lingvomadaniyatni o‘rganish xalqlararo shakllantirishda juda ham katta ro‘l o‘ynaydi. Ikki yoki undan ortiq xalqning madaniyatini anglab yetar ekanmiz, o‘sha xalqning o‘zaro bir-biriga munosabati, qarashlari haqida chuqurroq bilimga ega bo‘lamiz, hamda aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur fan doirasida leksik darajaning til birliklari semantikasidagi madaniyatshunoslikning tarkibiy qismlari va madaniy manolar organiladi. Quyida ikki asar o‘rtasidagi ushbu masalalarni ko‘rish mumkin. “Tom Savyerning sarguzashtlari” asarida Tom do‘stlari bilan orolga qochib ketgan sahnaga duch kelamiz. Ushbu sahnada Tom Savyer do‘stlari bilan trubka chekishga kelishishadi va o‘zboshimchalik bilan buni amalga oshirishadi. Buni amarikaliklar nigohida qaraydigan bo‘lsak, chekish odatiy bir xol, lekin o‘zbeklar nigohida bolalarning chekishi yomon bir illat sifatida qoralanib qaraladi. Ushbu masalaga ham lingvomadaniyatning bir turi sifatida qarasak

mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan tashqari, amerika asari bo‘lmish “Tom Savyerning sarguzashtlari” da ko‘zi o‘tkir odam mushukka qiyoslanadi, o‘zbek madaniyatida esa.aksincha ko‘z o‘tkir inson burgutga o‘xshatiladi ya’ni “burgut ko‘z" deb yuritiladi. Qo‘shimcha sifatida, “Tom Savyerning sarguzashtlari” asarida Tomning holasi Polly tanbeh berish uchun “I told you the forty times" (Men senga qirq marotaba aytdim) iborasini ishlatadi, o‘zbek asari bo‘lmish “Sariq devni minib" da esa “Men senga ming martta aytganman" deb aytib o‘tilgan. Ko‘rib turganimizdek yuqoridagi ikki asarda bir xil tushuncha ifodalanishiga qaramay, ikki millat turli xil frezeologik birliklar va iboralardan foydalangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tarjima jarayoni tarjimondan bir vaqtning o‘zida yuksak diqqat e’tibor talab etishining ham sababi aynan mana shunday oddiy ko‘ringani bilan bir millatning butun bir madaniyatini, urf odat an’analarini ko‘rsatib beradigan lingvokultorologiya ya’ni xalq tilida aytiladigan lingvomadaniyatni ko‘rsatib berishidir. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan ikki asar ushbu jumlalarning yorqin misoli bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khoshimova, N. A. (2021). Associative fields of the collective and individual conscious. *Theoretical & Applied Science*, (5), 436-439.
2. Hashimova, N., & Sattorov, T. (2021). Usage of english military terminologies as a neutral and colloquial vocabulary. *Current research journal of philological sciences (2767-3758)*, *2*(11), 162-167.
3. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o‘zbek tillarining funktsional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.
4. Xoshimova, N. (2019). External factors of associations’ individuality. *Scientific journal of the Fergana State University*, *2*(2), 134-136.
5. Toirova, N. I. (2019). The significance of the symbols of Mirror and Portrait in teaching Symbolism. *sign*, *1*, 22.
6. Mamajanova, M. (2021). Model concept modeling in linguistics types of linguistic models. Экономика и социум, (1-1), 160-163.
7. Holbekova, M., Mamajonova, M., & Holbekov, S. (2021). Communicative approach to teaching foreign languages. Экономика и социум, (3-1), 83-85.
8. Mirzayevna, M. (2021). Innovative technologies in foreign language teaching methodology. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(12), 465-467.

9. Kasimova, G. (2022). Importance of ice breaking activities in teaching english. *Science and innovation*, *1*(B7), 117-120.

10. Makhmudovna, K. G. (2022). Creative Strategies to Improve Vocabulary Teaching. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, *3*(10), 259-261.

11. Akhmedova, M. (2012). Characteristics of bronchial asthma associated vith allergic rhinosinusitis in children. *Medical and Health Science Journal*, *11*, 39-43.

12. Ibragimdjonovna, A. M. (2022). Developing professional communicative competence of medical students in a foreign language. *Eurasian Scientific Herald*, *15*, 45-50.

13. Isaqjon, T. (2022). Strategies and techniques for improving EFL learners' reading skills. *Involta Scientific Journal*, *1*(11), 94-99.

14. Mohira, A., & Isakjon, T. (2022). Methodology of english language. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, *3*, 68-71.

15. Ahundjanova, M. A. (2020). Methods and methods of teaching russian and english language and literature. *Экономика и социум*, (11), 46-49.

16. Ahundjanova, M. (2022). The needs for improving learners'autonomy in foreign language classes–as a key factor to boost language learners. *Science and innovation*, *1*(B6), 390-392.

17. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantical classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(5), 571-575.

18. Gafurova, N. (2020). Ҳозирги замон тилшунослигида "Термин" ва унга турлича ёндашувлар. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, *1*(1), 58-62.

19. Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). Ekvivalentsiz leksikaning o'zbek va ingliz tillarida ifodalanishi. *Academic research in educational sciences*, *2*(6), 209-212.

20. Oxunov, A. O. O. (2021). Ingliz va o'zbek tillarida undov so'zlar (interjection) ning ifodalanishi. *Academic research in educational sciences*, *2*(12), 401-406.

21. Pakirdinova, S. (2023). Zamonaviy tilshunoslikda reklama matni va uning o'ziga xos xususisyatlari. Talqin va tadqiqotlar, 1(19).